



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 98 sahifa,  
22-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar .....	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari .....	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli .....	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari .....	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash .....	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish .....	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri .....	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati .....	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni .....	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish .....	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish .....	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish .....	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish .....	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari .....	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты .....	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari .....	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi .....	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari .....	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
<i>A. S. Umarov</i>	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе .....	92
<i>Эргашев Серожиддин Султонмuroдович, Маматов Ислombек Ильесович</i>	



# JAHONDA ART-BIZNES KLASTERLARINING AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TUZILMASI

A. S. Umarov

Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI  
 San'atshunoslik fakulteti

“Informatika va menejment” kafedrası professorı, i.f.n.  
 O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti doktoranti

**Annotatsiya:** Jahon miqyosida art-biznes klasterlarini tashkil etish va rivojlantirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Art-biznes klasterlarining shakllanish jarayoni, funksional xususiyatlari hamda rivojlanish tendensiyalari o'rganilib, O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy yondashuv asosida tahlil etiladi. Shuningdek, art-biznes klasterlarining kreativ iqtisodiyot rivojlanishi, madaniy muhitni shakllantirish va hududiy taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rni yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** art-klasterlar, art-biznes klasterlari, loft makonlar, kreativ ko'chmas mulk, kreativ iqtisodiyot, madaniy muhit.

**Abstract:** A scientific analysis of the formation and development of art-business clusters at the global level is presented. The study examines the processes of establishment, functional characteristics, and development trends of art-business clusters through a comparative analysis of the experiences of Uzbekistan and foreign countries. In addition, the role of art-business clusters in the development of the creative economy, the formation of cultural environments, and regional development is highlighted.

**Key words:** art clusters, art-business clusters, loft spaces, creative real estate, creative economy, cultural environment.

**Аннотация:** Проводится научный анализ вопросов формирования и развития кластеров художественного бизнеса в мировом масштабе. Исследуются процессы становления, функциональные особенности и тенденции развития арт-бизнес-кластеров на основе сравнительного анализа опыта Узбекистана и зарубежных стран. Также раскрывается роль арт-бизнес-кластеров в развитии креативной экономики, формировании культурной среды и обеспечении регионального развития.

**Ключевые слова:** арт-кластеры, кластеры художественного бизнеса, лофт-пространства, креативная недвижимость, креативная экономика, культурная среда.

## KIRISH

Zamonaviy jamiyatda aholining katta qismi shahar muhitida istiqomat qiladi. Shahar muhiti turli ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va infratuzilmaviy obyektlar majmuasidan iborat bo'lib <sup>[1]</sup>, ular o'zaro munosabatlar shakllanadigan alohida makonni vujudga keltiradi. Mazkur muhitning ijtimoiy-madaniy sifati, avvalo, unda yashovchi aholining ehtiyojlari qanchalik to'laqonli va samarali qondirilishiga bog'liq.

Shahar hayotining barqaror rivojlanishi uchun turli funksional makonlarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday makonlar qatorida kreativ faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi “art-biznes klasterlari” alohida o'rin tutadi. Bunday tuzilmalar “kreativ ko'chmas mulk” shakli sifatida baholanib, ko'pincha faoliyatini to'xtatgan sanoat hududlari, ishlab chiqarish obyektlari yoki madaniyat markazlari negizida tashkil etiladi. Bu jarayonda foydalanilmayotgan arxitektura obyektlari rekonstruksiya qilinadi, ularning avvalgi funksional vazifalari yangicha mazmun kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Klaster” tushunchasi ma'lum hududiy-geografik makonda joylashgan, yagona texnologik yoki ijodiy yo'nalish bilan bog'langan biznes loyihalar, innovatsion ishlanmalar va mahsulot yaratish tizimlarining o'zaro integratsiyalashgan birlashmasini anglatadi <sup>[5]</sup>. Bunday birlashmalarning asosiy maqsadi kelgusida yangi, ilgari mavjud bo'lmagan soha va tarmoqlarning shakllanishi hamda rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratishdan iborat.

Kreativ makonlarni tashkil etishning eng keng tarqalgan shakllaridan biri “art-biznes klasterlari” yoki “loft” makonlaridir. Odatda, ular sobiq sanoat korxonalari hududida joylashtiriladi. Art-biznes klaster deganda sobiq ishlab chiqarish zonasi hududida tashkil etilgan, ijodiy, madaniy va tadbirkorlik faoliyatini birlashtiruvchi biznes-makon tushuniladi. Uning tarkibiga ko'rgazma zallari, seminar va konferensiya auditoriyalari, shourumlar, teatr sahnalari hamda boshqa madaniy-ijodiy maydonlar kiradi.

Zamonaviy ta'lim tizimi innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, badiiy ta'lim (ART-ta'lim) sohasida ta'lim jarayonini integratsiyalash<sup>[5]</sup>, modulli asosda tashkil etish va ijodiy muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Madaniyat va san'at oliy maktablarida klaster yondashuvi vositasida “ART-ta'lim”ni tashkil etish bu borada samarali usullardan biri hisoblanadi.

Klaster – bu o'zaro bog'liq tashkilotlar, ta'lim muassasalari, ijodiy markazlar, san'atkorlar va mahalliy hokimiyat organlarining hamkorlikda ish yuritish tizimidir. Ta'limdagi<sup>[6]</sup> klaster modeli san'at, madaniyat va ta'limni birlashtiruvchi kompleks platforma sifatida faoliyat yuritadi.

ART-ta'lim klasteri ta'lim, tarbiya va ijodiy o'sishning muttasil ta'minlanishini nazarda tutuvchi, uzviy bog'langan muassasalar va ishtirokchilar hamkorligini ifodalaydi. Bunda bolalar bog'chasidan to oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda badiiy ta'limni samarali va sifatli taraqqiy ettirish bilan birga, uni gorizontol yo'nalishda ham takomillashtirish mumkin<sup>[3]</sup>. Madaniyat va san'at oliy maktablari badiiy ijodni takomillashtirish va rivojlantirish maskanlari sifatida muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, art-biznes klaster yaxlit tizim sifatida faoliyat yuritishi lozim. Unda umumiy konseptual g'oya, yagona stilistik yondashuv va tashkilotlararo funksional uyg'unlik ta'minlanishi zarur. Bunday klasterlarda turli tadbirlarni o'tkazishga moslashuvchi transformatsion elementlar mavjud bo'lib, ular ko'rgazma, taqdimot, festival, seminar va boshqa madaniy tadbirlarni mavsum, tadbir mavzusi hamda auditoriya ehtiyojlariga muvofiq tashkil etish imkonini beradi.

Mazkur makonlarda tadbirlarni tashkil etishda yil fasllari, tadbir mavzusi va boshqa muhim omillar inobatga olinadi<sup>[4]</sup>. Shu bois, “art-klasterlar”ni zamonaviy shahar muhitining yangi shakllari sifatida an'anaviy urban makonga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvchi tizimlar deb baholash mumkin. Eng muhimi, bunday klasterlar madaniy salohiyatni ro'yobga chiqarish maskani bo'lib, ko'pincha shaharni rivojlantirishga intilayotgan faol fuqarolar tashabbusi asosida shakllanadi. Ular shaharni zamonaviy, jozibador va ijtimoiy faol hududga aylantirishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ma'lumotlarni olishda ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro va mahalliy tadqiqotlar, shuningdek, art-biznes klasterlari faoliyatiga oid ilmiy manbalar hamda statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqot uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar jahon amaliyotida faoliyat yuritayotgan art-biznes klasterlari tajribalarini o'rganish, mavjud ilmiy maqolalar, elektron ma'lumotlar bazalari va ochiq axborot resurslarini tahlil qilish orqali yig'ildi. Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribalarini o'zaro taqqoslash asosida art-biznes klasterlarining shakllanish omillari, funksional xususiyatlari hamda rivojlanish tendensiyalari aniqlashtirildi. Shuningdek, olingan natijalarni umumlashtirish va ilmiy xulosalarni shakllantirish maqsadida tahliliy-sintetik yondashuv asosida ma'lumotlar tizimlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Art-klasterlarning shakllanish tarixi jahon amaliyotida XIX asrga borib taqaladi. Bu borada Montmartre hududini misol sifatida keltirish mumkin. Mazkur hududda ijodiy ziyolilar faoliyat yuritgan galereyalar, do'konlar va kafelar jamlangan bo'lib, u o'z davrida kreativ muhit markaziga aylangan. Oradan bir asr o'tib, yangi bosqich kuzatildi – art-klasterlar sanoat hududlarida joylashtirila boshlandi.

Sanoat zonalari art-biznes klasterlarini tashkil etish uchun qulay makon hisoblanadi, chunki mavjud infratuzilma asosida ularni to'liq rekonstruksiya qilmasdan turib moslashtirish imkoniyati mavjud<sup>[7]</sup>. Yevropa mamlakatlarida tanazzulga uchragan sanoat hududlari egalari bunday tashabbuslarni ijobiy qabul qiladilar, chunki bu orqali hududning tashqi ko'rinishi yaxshilanadi va funksional ahamiyati qayta tiklanadi.

Bunday art-klasterlarning shakllanish jarayonida dastlabki obyekt sifatida badiiy akademiya faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ijara narxlarining nisbatan maqbulligi ijodiy subyektlarni jalb etishda muhim omil bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan hududda kafe va butiklar ochildi, turli madaniy hamda ijtimoiy tadbirlar tashkil etila boshlandi<sup>[8]</sup>. Natijada, ilgari foydalanilmay kelgan sanoat majmuasi bosqichma-bosqich to'laqonli “art-biznes klaster”ga aylanishga erishdi. Ushbu transformatsiya yangi ish o'rinlari yaratilishiga, innovatsion g'oyalar rivojiga va ijodiy muhit shakllanishiga xizmat qildi.

“Art-biznes klasteri” fenomenini hududiy misolda ham ko'rib chiqish mumkin. Hozirgi kunda moliyaviy resurslarning yetishmasligi va auditoriya qiziqishining pastligi sababli mazkur klasterning rivojlanish sur'ati



nisbatan sekin kechmoqda. Shunga qaramay, klaster hududidagi binolar ijara asosida rassomlar, musiqachilar, raqs jamoalari hamda kofe maskanlariga taqdim etilmoqda. Bu esa ijodkorlarga nafaqat daromad topish, balki o'z san'atini namoyish etish, professional muloqotga kirishish va kreativ hamkorlikni rivojlantirish imkonini yaratmoqda.

Umuman olganda, har qanday "art-biznes klasteri"ni shakllantirish jarayoni ijodiy salohiyatni iqtisodiy resursga aylantirishga qaratilgan strategik tashabbus sifatida talqin etilishi mumkin. Bunda mutlaqo yangi turdagi mahsulot – "art-mahsulot" yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, art-biznes innovatsion iqtisodiyotning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib <sup>[3]</sup>, u hatto Global Financial Crisis 2008–2009-yillar davrida ham nisbatan barqaror faoliyat yuritgan biznes turlaridan biri sifatida baholanadi.

"Art-biznes klasterlari" deyarli har qanday shaharda shakllanishi mumkin bo'lib, ayniqsa turizm infratuzilmasi rivojlangan hududlarda ularning samaradorligi yuqori bo'ladi. Turistik faollik yuqori bo'lgan shaharlarda bunday obyektlar barqaror iqtisodiy va madaniy natijalarga erishishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, Samarqand, Buxoro, Xorazm hamda Orolbo'yi mintaqasi shaharlari kabi markazlar art-klasterlar uchun eng maqbul makonlar sifatida baholanadi.

Art-biznes klasterlarining asosiy afzalligi ularning elementlari o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik natijasida yuzaga keladigan sinergetik samara bilan belgilanadi. Ya'ni, klaster tarkibidagi subyektlar birgalikda faoliyat yuritganda, ularning umumiy natijasi alohida-alohida olingan samaralar yig'indisidan ancha yuqori bo'ladi.

Art-biznes klasterlarining shakllanishi shahar muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ular madaniy va ijtimoiy sohalaridagi faollikni kuchaytiradi, ijodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi hamda aholining madaniy salohiyatini oshiradi. Zamonaviy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bunday klasterlarning paydo bo'lishi bilan muloqot maydonlari kengayadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadi.

Shuningdek, art-biznes klasterlari muayyan hududda turli madaniy faoliyat turlari va ijodiy amaliyotlarni birlashtiruvchi markaz sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa shahar muhitiga kompleks ta'sir ko'rsatib, quyidagi natijalarga olib keladi:

- shahar infratuzilmasining rivojlanishi;
- aholi bandligining oshishi;
- ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarish imkoniyatlarining kengayishi;
- shahar muhitining estetik va funksional jihatdan takomillashuvi;
- umumiy madaniy salohiyatning yuksalishi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Natijada, art-biznes klasterlari zamonaviy shaharning qulay va barqaror muhitini shakllantiruvchi muhim madaniy komponentga aylanib, shahar makonining yaxlit tizim sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurtaev U. "Badiiy ta'lim tizimida tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn sohasini uzluksiz va uzviylikni ta'minlash pedagogik muammo sifatida" // Uzluksiz ta'lim. 2020-y., maxsus son.
2. O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzurida rassomlik mahorat ustaxonasi (oliy rassomlik kursi) to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida. 05.04.2021-y.
3. Runova A.G. Art-biznes-klasterы v mire // Nauchno-metodicheskiy elektronnyy jurnal "Konsept". – 2017. – № S5. – 0,2 p.l. – URL: <http://e-koncept.ru/2017/470069.htm>
4. Umarov A.S. Uzluksiz ta'lim tizimida badiiy ta'lim innovatsion klasteri // International Scientific Research Conference. Belarus, 2022-y. – International Scientific Online Conference.
5. Umarov Abduxamid Sattarovich. O'zbekistonda badiiy ta'lim art-klasterini tashkil etishda ijodkorning badiiy kompetensiyalarini shakllantirish // Art and Design: Social Science. Volume 05, Issue 08, 2025. E-ISSN: 2181-2918; P-ISSN: 2181-290X. – 27-b.
6. Umarov A.S. Uzluksiz ta'limda zamonaviy san'at maktablarini tashkil etishning klaster tamoyillari // ReFocus. 2022-y. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/uzluksiz-talimda-zamonaviy-sanat-maktablarini-tashkil-etishning-klaster-tamoyillari>
7. Zihao Li. Quality Assurance for Performing Arts Education: A Multi-Dimensional Analysis Approach // Applied Sciences. 12(10):4813, May, 2022.
8. Sultanov Haytboy Eralievich. Na puti sovershenstvovaniya izobrazitel'nogo iskusstva v nepreryvnom obrazovanii: iz opyta raboty // Academic Research in Educational Sciences. Volume 1, Issue 4, 2020. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 4.804. Academic Research, Uzbekistan. – 545-b. [www.ares.uz](http://www.ares.uz)
9. Хангелдиева Ирина Георгиевна. Специфика арт-маркетинга: ключевые особенности // Власть социологии. 2012. №3.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.